JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 30 - oktabr 204-3-47-Q/23 Do‘stlik tuman hokimligi

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bob 39-moddasi “Aholining ijtimoiy extiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish”ga asosan Do‘stlik tumani hududidagi korxona va tashkilotlarda 2024-yil mobaynida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun 92 ta ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq

Q A R O R Q I L A M A N

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bob 39-moddasi “Aholining ijtimoiy extiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish”ga asosan, tashkilotlarning ro‘yxatdagi hodimlari o‘rtacha soni yigirma nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda hodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 7 foiz miqdorigacha, (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 92 ta ish o‘rinlarini zaxiralash **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 9-bob 39-moddasi “Aholining ijtimoiy extiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish”ga asosan, korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib bo‘lingan shaxslar ish o‘rinlari 2024 yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan:

a) 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali, ota onalar uchun 7 foiz (2 kishi);

b) Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, ta’lim tashkilotlarini kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 10 foiz (78 kishi);

d) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining , Ichki ishlar Vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining Davlat xafsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun foiz (2 kishi);

e) nogironlar uchun 3 foiz (3 kishi);

f) pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 7 foiz (1 kishi);

g) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun, 7 foiz (5 kishi);

h) odam savdosi qurbonlari uchun 3 foiz (1 kishi).

3.Tuman hudidida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo‘lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi tarkibi **2-ilovaga** asosan tasdiqlansin.

4. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

5. Ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yiladigan har bir korxona, tashkilot va muaasasalarda kasblar va lavozimlar ro‘yxati keltirib o‘tilsin.

6. Korxona, tashkilot va muassasa rahbarlari yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka

ko‘maklashish bo‘limiga xabardor qilishi shart.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanadi, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etilsin.

8. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy jarima solinadi.

9. Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

10. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy xisoblashning 2 baravari miqdorida haq to‘lash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 martdagi PQ-4227-sonli qarori 1 bob, 2 bandi Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

11. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bir xafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

12. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi birinchi o‘rinbosari A.Latipov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2023-yil 30-oktabrdagi
204-3-47-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hudidida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo‘lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi

TARKIBI

№	F.I.SH	Lovozimi
1	A.Latipov	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari -**komissiya raisi**
2	J.Oqilov	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i -**komissiya raisi o‘rinbosari**
3	S.Qayumova	Tuman inson ijtimoiy hizmatlari direktori-**komissiya a’zosi**
4	**Vakan**	Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i -**komissiya a’zosi**
5	F.Islamov	Tuman KQ va BK bo‘limi ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha BEK ofis bosh mutaxassisi -**komissiya kotibi**

Do‘stlik tuman hokimining
2023-yil 30-oktabrdagi
204-3-47-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Do‘stlik tumani hududida joylashgan korxona, tashkilot va muassasalarda mehnat bozorida raqobatlashishga qodir bo‘lmagan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarga 2024 yil uchun belgilangan (barpo etiladigan) zaxira ish o‘rinlari to‘g‘risida

T/P	Korxona, muassasa va tashkilotlar nomi	Shtatlar jadvaliga asosan belgilangan xodimlar soni	01.08.2023 yil holatiga ishlovchi xodimlar soni	Vazirlar Mahkamasining 05.12.2017 yildagi 965-sonli qaroriga asosan belgilangan me'yor asosida		Jami yaratilishi kerak bo'lgan kvota ish o'rni	Shu jumladan,						
				7%	3%		o'n to'rt yoshgacha bolalari bo'lgan va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun	kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun	safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun	nogironlar uchun	pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun	odam savdosi qurbon-lari uchun
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	*12*	*13*	*14*
1	Do'stlik tumani Tibbiyot texnikumi	60	60	2		2		2					
2	Do'stlik tumani "OBODOHLASHTIRISH BOSHKARMASI"	145	145	6	1	7	1		1	1		4	
3	Do'stlik tumani yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash-foydalanish korxonasi	73	73	2		2						1	1
4	Do'stlik tumani Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi	52	52	2		2		2					
5	Do'stlik tumani tibbiyot birlashmasi	515	515	23	2	25	1	20	1	2	1		
6	Do'stlik tumani Xalq ta'limi bo'limi	53	53	2		2		2					
7	Do'stlik tumani Musiqa va san'at maktabi	40	40	2		2		2					
8	Do'stlik tumani 2-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	85	85	2		2		2					
9	Do'stlik tumani 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi	30	30	1		1		1					
10	Do'stlik tumani 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	65	2		2		2					
11	Do'stlik tumani 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	80	80	2		2		2					

12	Do'stlik tumani 16-sonli boshlang'ich ta'lim maktabi	29	29	1		1		1					
13	Do'stlik tumani 19-sonli boshlang'ich ta'lim maktabi	35	35	1		1		1					
14	Do'stlik tumani 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	35	35	1		1		1					
15	Do'stlik tumani 6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	30	30	1		1		1					
16	Do'stlik tumani 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	63	2		2		2					
17	Do'stlik tumani 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	24	24	1		1		1					
18	Do'stlik tumani 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	32	32	1		1		1					
19	Do'stlik tumani 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	35	35	1		1		1					
20	Do'stlik tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	60	2		2		2					
21	Do'stlik tumani 15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	34	34	1		1		1					
22	Do'stlik tumani 18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	57	57	2		2		2					
23	Do'stlik tumani 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	57	57	2		2		2					
24	Do'stlik tumani 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	62	2		2		2					
25	Do'stlik tumani 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	34	34	1		1		1					
26	Do'stlik tumani 17-sonli boshlang'ich ta'lim maktabi	30	30	1		1		1					
27	Do'stlik tumani 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	72	2		2		2					
28	Do'stlik tumani 12-son maktabgacha ta'lim muassasasi	37	37	1		1		1					
29	"Tabassum"10- nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	23	23	1		1		1					
30	"RAYXON" 5-sonli maktabgacha ta‘lim muassasasi	32	32	1		1		1					
31	9-sonli "CHAROS" maktabgacha ta'lim muassasasi	29	29	1		1		1					
32	13-son "BAHOR" maktabgacha ta'lim muassasasi	36	36	1		1		1					
33	"KABUTAR" 1-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	33	33	1		1		1					
34	2-sonli "YULDUZCHA" maktabgacha ta'lim muassasasi	37	37	1		1		1					
35	"AYCHUREK"17-сон maktabgacha ta'lim muassasasi	32	32	1		1		1					

36	"NIXOL" 14-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	34	34	1		1		1					
37	"SHODLIK" 11-sonli maktabgacha ta‘lim muassasasi	29	29	1		1		1					
38	"ЛОЛІА" 3-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	53	53	1		1		1					
39	" Binafsha"nomli 4-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	40	40	1		1		1					
40	"Qaldirgocn"nomli 18-maktabgacha ta'lim muassasasi	28	28	1		1		1					
41	"Феруза"nomli 15-maktabgacha ta'lim muassasasi	26	26	1		1		1					
42	"Saodat"nomli 16-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	32	32	1		1		1					
43	Munavvara Solieva 6-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	29	29	1		1		1					
44	"Guldasta"nomli 7-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	32	32	1		1		1					
45	Do'stlik tumani madaniyat va aholi dam olish markazi	30	30	1		1		1					
46	Do‘stlik tumani "BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	32	32	1		1		1					
46	Do‘stlik tumani bolalar va o‘smirlar sport maktabi	50	50	2		2		2					
	Jami:	**2560**	**2560**	**89**	**3**	**92**	**2**	**78**	**2**	**3**	**1**	**5**	**1**